

BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA TO'G'RI TALAFFUZ KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRUVCHI O'QUV TOPSHIRIQLAR TIZIMI

Atamurodova Gulnora Shermurodovna

**Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti mustaqil
tadqiqotchisi, Samarqand shahar 13-umumiy o'rta ta'lim maktabi ma'naviy va ma'rifiy
ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.12697411>

Annotatsiya: Ushbu maqolada ona tili ta'limida to'g'ri talaffuz ko'nikmasini rivojlantirish va unga doir talaffuz mashqlari hamda topshiriqlarni ishlab chiqish. Shuningdek, o'quvchilarda adabiy talaffuz me'yorlari ko'nikmasini shakllantirish.

Kalit so'zlar: Nutq tovushlari, to'g'ri talaffuz, mahq va topshiriqlar, adabiy til me'yorlari.

Ona tili mashg'ulotlarida to'g'ri talaffuz ta'limining maqsadi, mazmuni takomilini ta'minlashda nutq tovushlariga oid mashqlarning o'zni benihoya kattadir. Chunki ular yordamida o'quvchi uchun adabiy tilda so'zlashish, uning rang-barang imkoniyatlaridan foydalanish sharoiti paydo bo'ladi. Mazkur masala, ya'ni dasliklarda fonetik materiallar talqini masalasi ingliz, nemis, fransuz tili darsliklarida ancha mukammal, to'liq, rang-barang shakllarda berilgan va e'tiborga molik tomoni shundaki, fonetik mashqlardan foydalanish boshlang'ich sinflardan keyingi ta'lim jarayonlarida ham davom ettiriladi.

Adabiy til va uning muhim tarkibiy qismi bo'lgan talaffuz me'yorlari millatning yuzi, madaniyatilik belgisi sifatida namoyon bo'ladi, shuningdek, shu millat vakillarining o'zaro muloqotlari tushunarli va samarali bo'lishini ta'minlaydi. Ona tili darslarida talaffuz ustida ishlanar ekan, hamma tovushlarning to'g'ri talaffuzi ham maxsus mashqni talab etavermaydi. Har bir tilda ham talaffuz va imlosi muammoli bo'lgan nutq tovushlari mavjud. Jumladan, o'zbek tilida ham. Asosan, o'quvchilar, barcha soha vakillari, eng achinarlisi, ayrim mutaxassis-o'qituvchilar ham **[x]**-**[h]**, **[u]**-**[o']**, **[i]**-**[e]** va ayrim hududlarda **[q]**, **[ng]** kabi tovushlarning aytilishi va yozilishida muntazam xatoga yo'l qo'yadilar. O'. Usmonova bu masalani hal qilishdagi qiyinchiliklarga shevalarni sabab qilib ko'rsatadi¹. Tadqiqotchi talaffuz masalasi o'zbek tilida o'rganilmasdan kelinayotganligini ta'kidlaydi va bu borada o'z ishida adabiy talaffuz me'yorlarini belgilash ishlariga birinchi bo'lib qo'l urgan olim F.K.Kamolov hamda professor S.I.Ibrohimovlarning qimmatli fikrlariga tayanadi.

Bugungi kunda ham ayrim unli va undoshlar talaffuzini o'rgatishda qiyinchiliklarga duch kelinadi. Talaffuzdagi har xillikka sabab sheva ekanligi nazarda tutilsa, adabiy talaffuzni shakllantirishning samarali yo'li bu – fonetik mashqlar ustida ishlash ekanligi ma'lum bo'ladi. Talaffuzda ham, yozuvda ham eng ko'p chalkashlik bo'g'iz undoshi **[h]** bilan bog'liq. Uni bartaraf qilish uchun quyidagicha yondashish tavsiya qilinadi:

Agar biz videoproektor (imkoni bo'lmasa, plakatlariga tushirib olish ham mumkin) orqali maxsus tuzilgan fonetik mashqlar va shu tovushlar talaffuz holati aks etgan oksilografik tasvirlardan foydalansak, natija ijobiyga o'zgarishi mumkin. Nutqiy malakalarni shakllantiruvchi vosita, bizningcha, quyidagicha mashqlardan muntazam foydalanishdir.

[X] va [H] harflarining talaffuzi hamda imlosi: **[h]** – bo'g'iz undoshi bilan **[x]** – chuqur til orqa undoshining ba'zan imloda, asosan, talaffuzda almashtirilib, xato qo'llanilmoqda. Bu

¹ Usmonova O'. Talaffuz madaniyati.–T.: Fan, 1976. – 3 b.

borada ko'plab metodik tavsiyalar, hatto maxsus lug'atlar ("h"li va "x"li so'zlar lug'ati) yaratilgan bo'lsa-da, bu borada hozirgacha sezilarli natija yo'q.

Talaffuz qiling.

h-h-h-h-h

x-x-x-x-x

ham – (va bog'lovchi)

xam – (egik)

hamma – (barcha, jami)

xamma – (bug'doy saqlanadigan idish)

hil – (bug')

xil – (tur)

hush (es, aql)

xush – (yaxshi, ajoyib)

shoh – (podshoh)

shox – (novda)

hol – (ahvol)

xol – (meng, tanadagi belgi)

Ko'rib turganingizdek, **[h]** - bo'g'iz undoshining talaffuz qilinishida **[x]** tovushidan farqli o'laroq, o'pkadan kelayotgan havo oqimi og'iz bo'shlig'ida til va tanglay orasidan erkin o'tayotganligi sababli deyarli shovqinsiz hosil bo'lmoqda: *h-h-h...*

Ilmiy adabiyotlarda **[h]** bo'g'iz undoshining o'z qatlamga oid so'zlarda uchramasligi ta'kidlanadi:

*"h" konsonanti o'zlashgan leksikaga oid so'zlarda qo'llanib, o'z leksikaga doir so'zlarda bo'lmaydi. Garchi u o'zbek orfoepik me'yoriga ko'ra artikulyatsiya qilinsa ham, jonli tilda ko'proq chuqur til orqa tovushiga yaqinlashtirilib yuboriladi. Shuning uchun uni Buxoro va Samarqand shevalaridan boshqa shevalarda chuqur til orqa konsonantidan farqlay bilmaydilar"*².

Shunga qaramay, *hil-hil, eh, ho, himm, ha, huvv, hoy, oh* kabi o'zbek tiligagina xos so'zlarda aynan bo'g'iz undoshi ishtirok etayotgani, bu tovushning talaffuzi o'zbeklar uchun begona emasligini inkor etib bo'lmaydi.

[x] - undoshining aytilishida esa tilning orqa qismi qattiq tanglayga juda yaqin bo'lganligi sababli o'pkadan kelayotgan havo oqimi tor oraliqdan siqilib o'tishi natijasida qattiq titrash orqali kuchli shovqin sodir bo'ladi: *x-x-x...*

Quyida bo'g'iz undoshining talaffuzi va imlosiga doir maxsus mashq va topshiriqlarni tavsiya etamiz:

1-mashq. Quyidagi ma'lumotlarni o'qing va to'g'ri talaffuz qilishni mashq qiling.

[h] bo'g'izda hosil bo'luvchi yagona undosh tovush bo'lib, o'pkadan chiqayotgan havo bo'g'izda to'siqqa uchraydi. Unli tovushlardan farqi shovqindan iboratligidadir. Chuqur til orqa undoshi **[x]** dan talaffuziga ko'ra farqlanadi:

[h] - talaffuzda til tanglayga tegmaydi, titramaydi.

[x] - talaffuzda tilning orqa qismi qattiq tanglayga tegadi va o'pkadan kelayotgan havo bosimi til va tanglay orasidan sirg'alib, titrab o'tadi.

hal – hol – hil – ho'l

xol – xil – xo'r – xas

hol – xol

hush – xush

ham – xam

hil – xil

hamma – xamma

hatto – xato

O'qituvchi shu holatni videoproektor orqali (uning hajmi katta bo'lganligi sababli sinfdagi barcha o'quvchi tasvirni yaqqol ko'rib turadi va bu eng muhimidir) batafsil izohlab, shu asosda to'g'ri talaffuz qilib bera olsa, natija istalgandek bo'ladi. So'ng mustahkamlash uchun biror matn, masalan, Muhammad Yusufning "Ilm istang" she'ri **[h]** va **[x]** harflari tushirilgan holda

² Qarang. Mirtojiyev M. O'zbek tili fonetikasi. – T.: Fan, 2013 – 121 b.

ekranga chiqarilsa, o'quvchilar bir vaqtning o'zida mustaqil o'rganganlarini amaliyotda qo'llab ko'rish imkoniga ega bo'ladilar. Vaqt ham tejaladi. Uyg'a vazifa sifatida biror sevimli asar misolida [x] yoki [h] tovushi ishtirok etgan 20ta so'z topib yozish topshiriladi. Bu borada she'riy matnlar ustida ko'proq ishlash yaxshi natija beradi.

1-mashq. *Berilgan she'riy matndagi bo'sh o'rinlarga kerakli harflarni qo'ying va she'rni ifodali o'qing.*

Alp o'g'lonlar o'lkasi bu ko'...na Turon,
 Qalqonlari, qanotlari, ilm istang.
 Yarim ja...on bunyod etgan So...ibqiron,
 Alisherning avlodlari, ilm istang.
 Ilm istang, izingizdan ibrat yog'sin,
 I...losingiz sha...dingizdan shiddat yog'sin,
 Ortingizdan mag'rur-mag'rur millat yog'sin
 Mulki Turon najotlari, ilm istang. (M.YUsuf)

2-mashq. *“Adabiyot” darsligidan uyga vazifa sifatida o'qishga berilgan biror asardan [x] va [h] undoshlari ishtirok etgan so'zlarga 15tadan misol topib daftaringizga yozing va ularni to'g'ri talaffuz qilishga odatlaning.*

3-mashq. *Tez aytishlarni takrorlang va siz ham shunday tezaytishlar tuzishga harakat qiling.*

1.Hamid hali ham Hamidadan hayiqadi. 2.Xurshid xo'rozining xunukligidan xo'rsindi.

Tutuq belgisining ifodalanishi: Tutuq belgisi ishtirok etgan so'zlarning talaffuzida, ba'zan imlosida ham kamchiliklar uchraydi. Darsliklarda mazkur belgining uch vazifasi haqida batafsil ma'lumot berilgan bo'lsa-da, talaffuzda chalkashliklar mavjud. Ya'ni unidan keyin kelganda ham, undoshdan keyin kelganda ham ajratib aytilaveradi. *Ma'/naviyat, ma'/rifat, ma'/no.* Muammoni bartaraf etish uchun, bizningcha, masalaga quyidagicha yondashish mumkin:

Eslatma [:] cho'ziqlikni bildiradi.

1-mashq. *Talaffuzda qiyoslang.*

Tana – ta':na	ma':no
Davo – da': vo	ma':rifat
Sher – she': r	ma':naviyat

Agar tutuq belgisi unidan keyin kelsa, shu unli tovush cho'ziqroq talaffuz qilinadi.

2-mashq. *Qoidaga asosan to'g'ri talaffuz qilishni mashq qiling.*

San'/at – sanat	mas'/ul
Tal'/at – talat	jur'/at
Qal'/a – qala	mas'/ud
Sur'/at – surat	in'/om, tal'/at

Agar tutuq belgisi undoshdan keyin kelsa, u o'zidan keyingi tovushdan ajratib talaffuz qilinadi.

1-topshiriq. *Dastlab tutuq belgisining unli harflardan keyin kelishiga, so'ng undosh harflardan keyin kelishiga xalq maqollari orasidan misollar topib yozing va talaffuz asosida farqlang.*

Va'daga vafo mardning ishidir.

2-topshiriq. Uyga vazifa. Nutq tovushlarini aniq talaffuz qilishni mashq qiling. Qanday hodisa yuz berayotganini yozma izohlang. Har bir soʻz ishtirok etgan sheʼriy misra keltiring.

Jumladan, oʻquvchilarga “Urgʻu” mavzusini oʻrgatishda ham maxsus mashqlardan unumli foydalanish nutqning taʼsirchanligini oshirishga yordam beradi. Ekranda havola etiladigan mashq namunalari dastlab boshqa til soʻzlariga qiyoslab oʻrgatilishi maqsadga muvofiq.

1-mashq. Toʻgʻri talaffuz qilishni mashq qiling.

Óna (*margarin*) – oná (*oyi*); Samára (*joy nomi*) – samará (*natija*)

Akadémik (*olim*) – akademík (*litsey*); Alishér – Puʻshkin

Nutq tovushlarining maʼno farqlash vazifasini aniqlash orqali oʻquvchilarning soʻz zaxirasini boyitish:

3-mashq. Berilganlarni toʻgʻri talaffuz qilishni mashq qiling.

it – et

is– es

il – el

ish – esh

tish – tesh

pish – pesh

in – en

iz – ez

3-topshiriq. Berilgan matndan maʼno farqlaydigan unli va undosh tovushlar ishtirok etgan soʻzlarni toping.

Kimki oʻz yoʻlidan borayotgan ekan, u hamma narsani biladi va uddalay oladi. Faqat bir narsa orzuning roʻyobga chiqishiga moneʼlik qiladi – bu omadsizlikdan choʻchish.

Oʻquvchilar uchun talaffuzi hamda imlosi qiyin nutq tovushlarini oʻzlashtirishga moʻljallangan maxsus fonetik mashq va topshiriqlar:

4-mashq. Quyidagi soʻzlarni toʻgʻri talaffuz qilishni mashq qiling.

nutq – huquq

qoʻl – qul

sulh – xulq teri – tire

rol – rul hush – xush

radio – yadro toʻzgan – tuzgan

internet – internat ajdar – ajal

[I] unlisining talaffuzi va imlosi

5-mashq. Qanday soʻzlarda **[i]** unlisi yoziladi, lekin oʻqilmaydi? Misollar keltiring.

[i] unlisi oʻzbekcha va arabcha soʻzlarda juda qisqa talaffuz qilinadi. Chunonchi, *bilim, iliq, din, asir, amir va boshq.*

Rus va tojik tilidan oʻzlashgan soʻzlarda aniqroq, choʻziqroq talaffuz qilinadi. Masalan; *kino, bino, fizika, durbin va hk.*

6-mashq. Berilgan maʼlumotlarni oʻqing va fonetik mashqlar ustida ishleng.

[i] va **[u]** unilari ayrim holatlarda **[e]** va **[oʻ]** unilari bilan almashtirilib imlo va talaffuzda turli xatoliklarni keltirib chiqarmoqda. Uni bartaraf etish uchun darslikdagi maʼlumotlar kifoya qilmaydi.

Fikrimizcha, **[i]** unlisining qipchoq lahjasi vakillari nutqidagi talaffuzi boshqacharoq boʻlib, barcha oʻrinlarda qisqa **[e]** tarzida talaffuz qilinadi. Bu muammoni bartaraf etish uchun darslikka ilova tarzda quyidagi fonetik mashqlarni berish zarur.

7-mashq. Toʻgʻri talaffuz qiling.

in – en; iz – ez; iqtisod–iqtidor; iflos–nafis; iroda–ibora....

8-mashq. Berilgan so'zlarni to'g'ri talaffuz qiling, ma'nosini bir-biridan farqlang. Har biriga ma'nodosh so'z toping va ular ishtirokida jumla tuzing.

et – it	e'lon – ilon
el – il	eshon – ishon
ez – iz	echki – ichki
en – in	endi – indi

9-mashq. [i]–[u] ishtirokidagi so'z juftlarini talaffuz me'yorlari asosida o'qing va qaysi to'g'ri ekanligini aniqlang.

qurish – qurush	tuzilish – tizilish
tug'ulish – tug'ilish	surush – surish
tuzum – tuzim	turush – turish
turmish – turmush	tiyish – tuyish

10-mashq. Quyidagi so'zlarni to'g'ri talaffuz qiling va xato yozilganlarini aniqlang.

Qipchoq lahjasiga mansub o'quvchilar ko'p holatlarda **[o']** unlisini **[u]** unlisi bilan talaffuzda va imloda almashtirib noto'g'ri qo'llashadi.

qo'l – qul	qo'sh – qush
g'o'ra – g'ura	g'o'za – g'uza
qo'ra – qura	qo'shiq – qushiq
qo'zi – quzi	o'zim – uzim
qo'y – quy	to'y – tuy
o'y – uy	so'y – suy

[a] va [o] unilari talaffuzi hamda imlosi:

O'zbekcha so'zlarda **[a]** unlisi, odatda, asliga ko'ra talaffuz qilinadi, biroq ayrim so'zlarda **[o]**ga o'xshab aytiladi, lekin **[a]** yoziladi. Masalan, *davom, ravon, vagon, narvon...*

11-mashq. O'zbek tilidagi til orqa **[o]** unlisi boshqa tillardagi **[o]**ga shaklan o'xshasa ham, talaffuzda farq qiladi. (O'qituvchi yordamida talaffuz qiling.)

ton (so'zidan tondi) –	ton (ohang)
tok (uzum) –	tok(kuchlanish)
tom (uyning tomi) –	tom (bob)

12-mashq. Uyga vazifa. Keltirilgan xalq maqollaridagi so'zlardan qaysilarida **[a]** unlisi **[o]** kabi talaffuz qilinadi, ammo **[a]** yoziladi.

1. Achchiq savol berib, shirin javob kutma. 2. Toza havo – tanga davo.

[o'] unlisining talaffuzi va imlosi:

[o'] unlisining tilimizda bir xil talaffuz etilmasligi ma'lum. Dastlab **[o']** unlisining ikki xil talaffuzini farqlab olish uchun misollar shakldosh so'zlardan keltiriladi va o'qituvchi ko'magida birma-bir talaffuz qilinadi:

to'r (uyning to'ri)	to'r (setka)
o'r (sochni)	o'r (o'tni)
o't (harakat)	o't (maysa)
o'sma (harakat)	o'sma (ot)

So'z tarkibida talaffuz qilib bo'lgandan so'ng quyidagi mashq orqali jumla tarkibida ham aytib ko'ramiz.

13-mashq. Berilgan gaplardagi tagiga chizilgan soʻzlarni maʼnosiga koʻra toʻgʻri oʻqing va maʼnodoshlarini toping.

Mehmon uyning toʻrida oʻtiradi. Biz toʻrni olib baliq tutgani yoʻl oldik. Onasi qizining sochini oʻrib qoʻydi. Niholni erta ekkan, hosilni erta oʻrar.

Oltin oʻtda bilinar – odam mehnatda. Oʻtgan bulutdan yomgʻir kutma. Oʻsma qoshni oʻstiradi.

14-mashq. Berilgan sheʼriy matnni ifodali oʻqishni mashq qiling. Undan [oʻ] unlisi ishtirok etgan soʻzlarni talaffuz asosida ikki ustunga ajratib yozing.

Qiyosi yoʻq aslo, mehri bir daryo,

Oʻxshasa oʻziga oʻxshaydi oʻzbek.

Bolalariga-ku bildirmas, ammo,

Dunyoda bolam, deb yashaydi oʻzbek.

Oʻnta boʻlsa, oʻrni boshqa uning-chun:

Oʻgʻlim otashimdan yaralgan uchqun,

Qizim parilardan chehrasi gulgun,

Yuzlari lolam deb, yashaydi oʻzbek. (M. Yusuf)

Agar oʻzbek tili ikkinchi til yoki davlat tili sifatida oʻqitilayotgan boʻlsa, mashqlar qatorini oʻquvchining ona tilidagi tovushlar bilan ham davom ettirish mumkin:

bol – bol

but – but

kon – kon

sol – sol

tut – tut

ton – ton

son – son

tush – tush

tok – tok

ton – ton

shum – shum

dom – dom

Bunday mashqlar birinchidan, oʻquvchi nutqini adabiy talaffuzga odatlanishini taʼminlaydi, ikkinchidan, oʻquvchining rus va oʻzbek tili boʻyicha bilimlarini ham boyitadi. Qolaversa, oʻqituvchi mazkur mashqdagi soʻzlarni namuna sifatida talaffuz qilib berayotganda soʻzlarning maʼnosini oʻquvchilarga tushuntirishga harakat qilib, sinonimlardan foydalanadi, natijada taʼlim oluvchining soʻz boyligi oshishiga ham erishiladi. Yoki talaffuz mashqi tugagach, oʻquvchilarning oʻzlariga oʻzbekcha soʻzlarga maʼnosi toʻgʻri keluvchi boshqa soʻzlar topish topshirigʻi berilsa, ularning mustaqil ishlashlariga, fikrlashlariga, oldin oʻrganilganlarini amaliyotda qoʻllashlariga sharoit yaratiladi.

References:

1. Usmonova Oʻ. Talaffuz madaniyati. – T.: Fan, 1976. – 3 b.
2. Mirtojiyev M. Oʻzbek tili fonetikasi. – T.: Fan, 2013 – 121 b.
3. Bobomurodova A.YA. Ona tili taʼlimi jarayonida oʻyin-topishmoqlardan foydalanish. Ped. fan nomzodi diss. – Toshkent, 1996.
4. Ibrohimov S. Nutq madaniyati va adabiy talaffuz haqida. – T.: Fan, 1972.
5. Mirtojiyev M. Oʻzbek tili toʻgʻri talaffuzsi. – T.: Fan, 2013.